

Farg'ona viloyatida sanoat ishlab chiqarishi


2026- yil yanvar-aprel oyi uchun

- I. Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni
- II. Farg'ona viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni

2026- yilning 1-may holatiga ko'ra viloyatda 6 305 ta sanoat korxonalarini faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalarini soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 1048 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 16,6 % i) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 773 tasi (12,3 %) kiyim ishlab chiqarishga, 547 tasi (8,7 %) mashina va uskunalardan tashqari tayyor metal buyumlar ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni
1- may holatiga ko'ra



II. Farg‘ona viloyati sanoatining asosiy ko‘rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma‘lumotlar bo‘yicha 2026-yilning yanvar-aprel oyida viloyat korxonalarini tomonidan 18 277,5 mlrd so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2025-yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 108,3 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so‘m	Fizik hajm indeksi, % da
Farg‘ona viloyati	18 277,5	108,3
<i>shahar tumanlar:</i>		
Farg‘ona shahri	370,3	106,8
Qo‘qon shahri	968,9	107,8
Quvasoy shahri	403,6	110,8
Marg‘ilon shahri	437,1	112,3
Oltiariq tumani	564,4	109,1
Qo‘shitepa tumani	225,5	110,7
Bag‘dod tumani	1 709,3	110,8
Buvayda tumani	234,9	117,3
Beshariq tumani	47,6	112,1
Quva tumani	937,6	110,8
Uchko‘prik tumani	469,7	110,4
Rishton tumani	694,7	109,8
So‘x tumani	508,6	109,1
Toshloq tumani	227,4	107,4
O‘zbekiston tumani	175,2	111,2
Farg‘ona tumani	3 456,1	103,4
Dang‘ara tumani	2 899,8	108,4
Furqat tumani	641,8	108,3
Yozyovon tumani	779,6	109,1

Mavzuga doir ko‘rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalarini joylashganligi hisobiga Farg‘ona shahrida (10 293,9 ming so‘m), Qo‘qon shahrida (9 055,0 ming so‘m), Quvasoy shahrida (6 111,6 ming so‘m), Uchko‘prik tumanida (6 763,1 ming so‘m), o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (4 319,6 ming so‘m) sezilarli darajada yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 106,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, Yozyovon tumanida (109,2 %), Farg'ona tumanida (107,9 %), Qo'qon shahrida (106,4 %), Beshariq tumanida (107,3 %), Marg'ilon shahrida (107,4 %) So'x tumanida (108,7 %), Rishton tumanida (115,3 %) qayd etilib viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar-aprel oyida



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2026- yilning yanvar-aprel oyida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 16 779,0 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (91,8 %) ni tashkil etgan holda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 54,4 mlrd so'm (0,3 %), elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 1 255,6 mlrd so'm (6,9 %) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 188,6 mlrd so'm (1,0 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi, jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2026- yilning yanvar-aprel oyida





III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2026- yilning yanvar-aprel oyida viloyatda 55,2 ming tonna avtomobil benzini (2025- yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan 106,2 % ga o'sdi) 26 901,6 tonna Paxta tolasi (109,3 % ga o'sdi) hamda 152 378,7 tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (129,5 % ga o'sdi) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2024- yil yanvar-aprel	2025- yil yanvar-aprel	2026- yil yanvar-aprel
Paxta tolasi, tonna	34 068,6	23 786,2	26 901,6
Paxta urug'lari, tonna	47 397,0	34 113,2	33 826,1
Avtomobil benzini, ming t	101,8	52,0	55,2
Dizel yoqilg'isi, ming t	123,7	79,9	109,9
Paxta linti, tonna	2312,2	2 331,1	1 842,1
Neft bitumi, ming t	11,3	10,7	9,1
Portlandsement, ming t	37,0	92,5	254,0

**2024-2026- yillarning yanvar-aprel oyi uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 19,7 % (2025- yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 109,5 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 11,8 % (2025 yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 92,8 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,7 % ni (2025-yilning yanvar-aprel oyida 0,8 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 14,3 % (17,0 %), o'rta-quyi texnologiyali – 24,8 % (27,1 %), quyi texnologiyali 60,2 % (55,1 %) ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2026-yilning yanvar-aprel oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektr energiya ishlab chiqarish 74,2 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 88,8 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024- yil yanvar-aprel	2025- yil yanvar-aprel	2026- yil yanvar-aprel
Jami ishlab chiqarilgan elektr energiya, mln kvts	106,2	116,7	86,7
Issiqlik energiyasi, ming gkal	435,8	496,5	440,7

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan tabiiy suv; suvga ishlov berish va suv ta'minoti bo'yicha xizmatlar 158,1 % ni chiqindi suvlarni olib tashlash, tashish va ularni qayta ishlash bo'yicha xizmatlar 93,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024- yil yanvar-aprel	2025- yil yanvar-aprel	2026- yil yanvar-aprel
Tabiiy suv; suvga ishlov berish va suv ta'minoti bo'yicha xizmatlar mlrd so'm	12,1	77,8	122,9
Chiqindi suvlarni olib tashlash, tashish va ularni qayta ishlash bo'yicha xizmatlar-mlrd so'm	10,8	16,6	15,5

*2024-2026- yillarning yanvar-aprel oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 10 575,4 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 57,9 % ni tashkil etdi. 2025- yilning yanvar-aprel oyida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 52,7 % ni tashkil etgan.



VI. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik sub'ektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqarish sanoati

D - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbfgeheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:

B. Xamdamov
73 241-96-28 (4010)

Manzil:

